



# KORXONALARING MOLIYAVIY FAOLIYATIDAGI RISKLARNI BOSHQARISH MUOMMO VA ISTIQBOLLARI

Xasanov Rashid Radjabovich

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Majidova Maftuna Abdurashid qizi

Toshken Gumanitar fanlar universiteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalar moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan risklarni samarali boshqarish uchun moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash va minimallashtirish usullariga qaratilgan bo‘lib, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so’zlar.** Moliyaviy risklar, risklarni boshqarish, korxonalar moliyaviy faoliyati, xavflarni minimallashtirish, strategik boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, zamonaviy yondashuvlar, risklarni baholash usullari.

## KIRISH

Bugungi kunda korxonalar moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavflar global iqtisodiy jarayonlar ta’sirida sezilarli darajada oshmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda o‘sish sur’atlari bilan bir qatorda moliyaviy tizimda yangi xatarlarni boshdan kechirmoqda. 2020 yil pandemiya davrida mamlakatda eksport hajmi 15% ga qisqarib, ayrim tarmoqlarda likvidlik muammosi yuzaga keldi. Ushbu sharoitda risklarni boshqarish korxonalar faoliyatining muhim qismiga aylandi. Xalqaro tajribadan ko‘rish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy risklarni samarali boshqarish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi., Germaniyada 2019 yilda korporativ moliya boshqaruvi sohasidagi samaradorlik ko‘rsatkichi 85% ni tashkil qilgan. Bunga davlat tomonidan subsidiyalar va sug‘urta dasturlarini kengaytirish orqali erishildi. Taqqoslash uchun, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2021 yilda atigi 60% ni tashkil etdi. O‘zbekistonda moliyaviy tizimni isloh



qilish va risklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar so‘nggi yillarda kengaytirildi. Xususan, 2021 yilda "Moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash to‘g‘risida" qabul qilingan qarorlar bank sektorida xatarlarni boshqarish bo‘yicha muhim qadam bo‘ldi. Shunga qaramay, korxonalarning moliyaviy xavflarni boshqarish bo‘yicha tajribasi yetarli emasligi kuzatilmoxda. Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologik vositalardan foydalanish moliyaviy xavflarni kamaytirishda sezilarli yutuqlarga olib keladi. Masalan, 2020 yilda Xitoy kompaniyalari risklarni texnologik yechimlar yordamida boshqarib, o‘rtacha foydalilik darajasini 12% ga oshirgan. O‘zbekiston korxonalari esa hali bu ko‘rsatkichni 5% darajasida saqlamoqda, bu esa global raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Pandemiya ta’siri natijasida ko‘plab davlatlarning iqtisodiy tizimi zaiflashdi. AQShda, masalan, 2020 yil davomida kichik bizneslarning 25% ga yaqini moliyaviy muammolar tufayli yopilgan. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 10% atrofida bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxona faoliyatida xavflarni boshqarishning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy xavflar bilan bog‘liq yo‘qotishlar sezilarli darajada yuqori. Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, bunday davlatlarda moliyaviy xavflar tufayli har yili YaIMning 3% gacha qismi yo‘qotiladi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2022 yilda 2,5% ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1% dan oshmaydi. Yevropa davlatlarining risklarni boshqarish sohasidagi yondashuvlari O‘zbekiston uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Germaniyada 2021 yilda moliyaviy xavflarni sug‘urta qilish dasturlari uchun YaIMning 3% miqdorida mablag‘ ajratildi. O‘zbekistonda esa bunday dasturlarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan resurslar YaIMning atigi 0,8% ni tashkil etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, moliyaviy xavflar ham ortib bormoqda. 2023 yilning dastlabki choragida investitsiyalarning 18% xorijiy mablag‘lar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Biroq, ushbu investitsiyalarni yo‘qotish xavfi yuqori bo‘lib, bu korxonalarni yanada samarali risk boshqaruv tizimlarini joriy etishga undaydi.

**Adabiyotlar sharxi.** Korxonalarning moliyaviy faoliyatidagi risklarni boshqarishda bir qancha olimlar tadqiqot olib borishgan Xususan, Christopher Nobes (Buyuk Britaniya) moliyaviy boshqaruv va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo‘yicha yetakchi mutaxassis hisoblanadi. U o‘z tadqiqotlarida moliyaviy risklarni boshqarishda xalqaro standartlar joriy etilishining ahamiyatini ta’kidlagan. Nobesning fikricha, xalqaro standartlarga muvofiq boshqaruv tizimlari korxonalar o‘rtasida global taqqoslash imkonini beradi va bu orqali xavflarni minimallashtiradi. Masalan, Yevropaning rivojlangan davlatlarida IFRS qo‘llanishi tufayli moliyaviy yo‘qotishlar o‘rtacha 20% ga kamaygan. O‘zbekistonda esa ushbu standartlar to‘liq joriy etilmaganligi sababli, xavflarni samarali boshqarish qiyinlashmoqda. Rossiyalik olim V.A. Sviderskiy o‘z tadqiqotlarida rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy risklarni kamaytirish yo‘nalishlariga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, risklarni samarali boshqarish uchun davlat tomonidan tartibga solishning o‘rni muhimdir. Masalan, Rossiyada 2018-2020 yillar davomida qabul qilingan qonunchilik moliyaviy risklar hajmini 15% ga kamaytirishga xizmat qilgan. O‘zbekistonda esa hali ham davlat ishtiroki yetarli darajada samarali emasligi sababli, xatarlarni boshqarishda sustkashlik kuzatiladi. Xitoylik olim Zhang Wei texnologik yondashuvlar orqali moliyaviy xavflarni kamaytirish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilini qo‘llash xavflarni aniq prognoz qilish imkonini beradi. 2020 yilda Xitoy kompaniyalari bunday texnologiyalarni joriy qilib, moliyaviy yo‘qotishlarni o‘rtacha 12% ga qisqartirishga muvaffaq bo‘lgan.

O‘zbekistonda esa bunday texnologiyalar joriy etilishi juda sust bo‘lib, bu o‘z navbatida korxonalar xavflarini oshirib yubormoqda.

O‘zbekistonlik iqtisodchi Sh. V. Tursunov mamlakatda moliyaviy risklarni boshqarishning muammolari va imkoniyatlarini o‘rgangan. Uning fikricha, mamlakat korxonalari xalqaro tajribani o‘rganib, mahalliy sharoitga mos strategiyalarni ishlab chiqishi zarur. Tursunovning hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonda moliyaviy risklarni boshqarish tizimini to‘g‘ri tashkil etish orqali korxonalar samaradorligini 20-

25% ga oshirish mumkin. Biroq, bunga erishish uchun moliyaviy va texnologik infratuzilmani mustahkamlash zarur deb fikr yuritgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda moliyaviy risklarni boshqarishning samaradorligini baholash uchun nazariy va empirik tahlil usullari qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyati turli moliyaviy xavflar bilan to‘qnash kelmoqda. Bu xavflar nafaqat korxonaning moliyaviy barqarorligiga, balki umumiy iqtisodiy o‘sishga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda moliyaviy risklarni boshqarish tizimining rivojlanish darajasi hali yetarli darajada samarali emas. Ayniqsa, likvidlik, valyuta kurslari o‘zgarishi va qarzdorlik bilan bog‘liq xavflar mahalliy korxonalar uchun dolzARB muammo bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston korxonalarining moliyaviy faoliyatidagi risklarni boshqarish bo‘yicha asosiy muammolar quyidagilardan iborat.

- ✓ Xodimlarning yetarli malaka darajasiga ega emasligi
- ✓ Risklarni sug‘urta qilish tizimining rivojlanmaganligi
- ✓ Statistik va analitik ma’lumotlarning cheklanganligi
- ✓ Texnologik vositalar va raqamli platformalarning yetishmasligi
- ✓ Davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning sustligi

#### 1-jadval.

#### O‘zbekiston va boshqa davlatlarda moliyaviy xavflarni boshqarishning qiyosiy

#### ko‘rsatkichlari (2020 yil)

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston	Germaniya	Xitoy	Rossiya
Moliyaviy xavflarni sug‘urta qilish darajasi (%)	15%	80%	70%	50%
Xodimlarning malaka darajasi (%)	40%	90%	85%	60%
Texnologik vositalar qo’llanilishi (%)	25%	75%	80%	55%

Risklarni boshqarish samaradorligi (%)	50%	90%	85%	70%
--	-----	-----	-----	-----

O‘zbekiston korxonalarining moliyaviy xavflarni boshqarish tizimini rivojlantirish uchun xalqaro tajribaga asoslanib, quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirish zarur: xodimlarning malakasini oshirish, sug‘urta xizmatlarini kengaytirish, texnologik vositalardan foydalanishni rivojlantirish va davlat tomonidan ko‘proq qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyati turli moliyaviy xavflar bilan to‘qnash kelmoqda. Bu xavflar nafaqat korxonaning moliyaviy barqarorligiga, balki umumiyligi o‘sishga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda moliyaviy risklarni boshqarish tizimining rivojlanish darajasi hali yetarli darajada samarali emas. Ayniqsa, likvidlik, valyuta kurslari o‘zgarishi va qarzdorlik bilan bog‘liq xavflar mahalliy korxonalar uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston korxonalarida moliyaviy xavflarni boshqarish tizimining mavjud holati va ularni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi.

### 1-jadval.

#### Moliyaviy xavflarni boshqarish muammolarini yechish bo‘yicha takliflar

1.	Xodimlar malakasini oshirish	<b>Moliyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha xodimlar uchun xalqaro standartlarga mos treninglar tashkil qilish.</b>  O‘zbekiston universitetlari va moliya institutlarida moliyaviy xavflarni boshqarish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish.
2.	Sug‘urta tizimini rivojlantirish	Korxonalar uchun maxsus sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish

		Sug‘urta kompaniyalariga davlat subsidiyalari yoki soliq imtiyozlari taqdim etish orqali sug‘urta qamrovini oshirish
3.	<b>Statistik va analitik ma’lumotlardan foydalanishni kengaytirish</b>	Moliyaviy xavflarni boshqarishga oid markazlashgan ma’lumotlar bazasini yaratish  Korxonalar uchun ochiq va foydalanish qulay bo‘lgan analitik platformalarni rivojlantirish
4.	<b>Texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish</b>	Korxonalar uchun sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilini o‘z ichiga olgan raqamli risk boshqaruvi tizimlarini ishlab chiqish  IT-kompaniyalar bilan hamkorlikda moliyaviy xavflarni boshqarishga mos texnologik echimlarni joriy etish
5.	<b>Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish</b>	Risklarni boshqarish bo‘yicha davlat dasturlarini qabul qilish va moliyalashtirish  Korxonalarga qaratilgan soliq imtiyozlari, davlat grantlari va kreditlarni oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash
6.	<b>Xalqaro tajribadan foydalanish</b>	Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va ularning tavsiyalarini mahalliy sharoitga moslashtirish  Rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy boshqaruvi amaliyotini tadqiq qilish va mahalliy korxonalarda qo‘llash
7.	<b>Korxona ichki boshqaruvini takomillashtirish</b>	Moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash va monitoring qilish uchun ichki audit xizmatlarini kuchaytirish  Korxonalarda xavf boshqarish bo‘yicha alohida bo‘lim yoki mutaxassislarni joriy etish

O‘zbekiston korxonalarining moliyaviy faoliyatidagi xavflarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Xodimlar

malakasini oshirish, sug‘urta tizimini rivojlantirish, texnologik yechimlarni joriy etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar risklarni minimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy xavflarni samarali boshqarish orqali korxonalar nafaqat o‘z faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning umumiyligi rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, xalqaro standartlarga moslashish va davlat tomonidan iqtisodiy muhitni yanada qulay qilish ustuvor vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston korxonalari moliyaviy xavflarni boshqarishda sezilarli yaxshilanishlarga erishdilar. Xodimlarning malakasini oshirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish, moliyaviy risklarni samarali boshqarishning samaradorligini oshirdi. Sug‘urta tizimi va texnologik vositalarni rivojlantirish korxonalar uchun xavflarni aniqlash va prognozlashda imkoniyatlarni kengaytirdi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlari orqali korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishdi. Bularning barchasi, korxonalarning global raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam berdi.

- ✓ Xodimlar malakasining oshirilishi moliyaviy xavflarni boshqarishning samaradorligini sezilarli darajada yaxshiladi. Xalqaro standartlarga mos treninglar va o‘quv dasturlari yordamida, korxonalarda moliyaviy boshqaruvning sifati oshdi, bu esa qaror qabul qilishda aniqroq va ishonchli yondashuvlarni ta’minladi.
- ✓ Sug‘urta mahsulotlari va xizmatlarining kengaytirilishi orqali korxonalar moliyaviy xavflarni kamaytirishga muvaffaq bo‘lishdi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar, masalan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar, sug‘urta xizmatlarining mavjudligini oshirdi va bu orqali risklarni samarali boshqarish imkoniyatlari yaratildi.
- ✓ Markazlashgan ma’lumotlar bazasi va analitik platformalar yaratish orqali korxonalar moliyaviy xavflarni prognozlashda aniqroq natijalarga erishdilar. Buning

natijsida, risklarni boshqarishda samaradorlik va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati oshdi.

- ✓ Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini qo'llash orqali moliyaviy xavflarni aniqlash va boshqarish tizimi samarali rivojlandi. Texnologik yondashuvlar yordamida, korxonalar xavfni prognoz qilish va tezkor javob choralarini ko'rishda sezilarli darajada muvaffaqiyat qozondilar.
- ✓ Davlatning risklarni boshqarish bo'yicha qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishi korxonalarga moliyaviy xavflarni kamaytirishda yordam berdi. Soliq imtiyozlari va davlat grantlari orqali, korxonalar qo'shimcha resurslar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga erishdilar.
- ✓ Xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali, O'zbekiston korxonalari moliyaviy risklarni boshqarishda yanada samarali yondashuvlarni qo'llashni boshladilar. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali, zamonaviy boshqaruv tizimlari va amaliyotlarni joriy etish imkoniyati yaratildi.
- ✓ Ichki boshqaruv tizimlarini kuchaytirish va xavf boshqarish bo'limlarini tashkil etish orqali korxonalar moliyaviy xavflarni samarali aniqlash va boshqarishda sezilarli darajada muvaffaqiyatga erishdilar. Ichki audit va monitoring tizimlarining takomillashuvi korxonalarning barqarorligini oshirishga yordam berdi.

Umuman olganda, yuqoridagi takliflarni amalga oshirish natijsida O'zbekistonda korxonalarning moliyaviy xavflarni boshqarish tizimi yaxshilandi, iqtisodiy barqarorlik va o'sish sur'atlari sezilarli darajada oshdi. Bu takliflarning amalga oshirilishi moliyaviy risklarni boshqarishning samaradorligini oshirgan va korxonalarga global raqobatbardoshlikni oshirishda yordam bergen.

## XULOSA

Moliyaviy risklarni boshqarish korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi va iqtisodiy rivojlanishning asosi hisoblanadi. O'zbekiston korxonalarida moliyaviy xavflarni boshqarish tizimi hozirgi kunda hali to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, taklif

etilgan chora-tadbirlar bu jarayonni takomillashtirishda katta rol o‘ynaydi. Xodimlar malakasini oshirish, sug‘urta tizimini rivojlantirish, texnologiyalardan keng foydalanish, davlat qo‘llab-quvvatlashining kuchaytirilishi va xalqaro tajribadan foydalanish kabi tadbirlar, korxonalarining moliyaviy xavflarni samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayonlar nafaqat O‘zbekiston iqtisodiy tizimini mustahkamlashga, balki korxonalarining global raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Buning natijasida, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va o‘sish sur’atlarini tezlashtirishga erishiladi. Demak, moliyaviy xavflarni boshqarishning zamонавиy va kompleks yondashuvlari O‘zbekiston korxonalarining muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. V.A. Sviderskiy. Moliyaviy hisobotlar va ularning tahlili. Toshkent: O‘zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti, 2018 yil. 34-56.
2. Zhang Wei. Comparative Analysis of IFRS and US GAAP. Beijing: China Financial Press, 2015 yil. 22-40.
3. Sh. V. Tursunov. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari: nazariy va amaliy asoslar. Toshkent: O‘zbekiston moliya institutining nashriyoti, 2019 yil. 101-118.
4. R. H. Kely. Financial Management. McGraw-Hill, 2014 yil. 103-125.
5. O. A. Muhammadiev. Moliyaviy xavflarni boshqarish: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti, 2020 yil. 78-92.
6. K. A. Komissarov. Finansovoe planirovanie i otsenka riskov. Moskva: Finanzы i statistika, 2016 yil. 58-73.
7. S. A. Qosimov. Xalqaro moliya va hisob: Nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: O‘zbekiston moliya institutining nashriyoti, 2021 yil. 55-68.
8. M. A. Dempsey. Corporate Finance and Risk Management. Boston: Pearson Education, 2018 yil. 122-140.

9. S. V. Tursunov. Moliya va risklarni boshqarish metodlari. Toshkent: O'zbekiston moliya institutining nashriyoti, 2022 yil. 89-101.
10. L. E. O'connor. Risk Management Strategies in Finance. London: Routledge, 2019 yil. 45-60.
11. A. R. Shermatov. Investitsiyalarni boshqarish va moliyaviy xavflar. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti, 2017 yil. 67-83.